

AXBOROT ASRIDA TA'LIM TARBIYA

Xidirova Feruzaxon Bahodirovna

Dang'ara 1- sonli kasb-hunar maktabi informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda talabalarning pedagogik texnalogiyasini innovatsiyon g'oyalarini amalga oshirish hamda takomillashtirish texnologiyalari va loyihalari keng ko'lamda takomillashtirib borilmoqda. Shunday ekan talabalarning inavatsion salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, innovatsion g'oyalarni, texnologiyalar va loyihalarni keng tadbiq qilish maqsadga muofiqdir.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, ta'lif, kadrlar masalasi.

Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat, shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz. Yangi O'zbekistonni mana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz.

Sh.Mirziyoev

Biz mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasrurini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqdamiz. Aytishimiz joizki bu albatta o'qituvchilarning faoliyati va uning kasbiy nufuzini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Albatta mamlakat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash nihoyatda nozik ziddiyadli jarayon hisoblanadi. Fan va texnikaning tobora rivojlanib borishi natijasida axborot tizimining hajmi ham kengayib bormoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalar ta'limga tatbiq etilib, ta'lif jarayonlari kompyuterlashtirilmoqda. Bu esa o'z novbatida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV) dan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratmoqda.¹

Ayni vaqtida dunyoda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot integratsiyasi tendensiyalari tobora ilgarilab bormoqda. Muammoni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pincha ma'lum bir o'quv predmeti doirasida bir xil tushuncha turlicha ta'riflanadi. Ilmiy atamlarning bunday noaniqligi o'quv materialini idrok etishni qiyinlashishiga sabab bo'ladi. O'quv rejalarining nomuvofiqligi esa turli fanlar bo'yicha bir xil ta'lif ma'lumotlarining turli akademik vaqtarda o'rganilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, bugungi rivojlanish bosqichida ob'yektlarning tarqoq holatda turgani ularning bir-biri bilan integratsiyaga kirishishi lozimligini ko'rsatadi. Bu amaliy jarayon talabalarda kreativ qobilayatning shakllanishida yuqori ahamiyat kasb

¹ Otamuratov, R.U. va Ochilova, M. (2022). Emotsional intellekt tushunchasining psixologik o'ziga xosligi. Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIS), (Maxsus soni 1), 54-58.

etadi. Pedagogik jarayonning yaxlitligining konseptual asoslarini A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, S.T.Shatskiylar yaratishgani bizga ma'lum. Aynan o'tgan asrning 20-50- yillarida o'qituvchilar amaliyotida talabalarning, o'quvchilarning o'quv jarayonlarining birligi va o'zaro bog'liqligining mohiyatini ular ochib berdilar. Bu olimlarimiz shaxsni har jihatdan rivojlantirish zarurati haqidagi konseptual asoslardan kelib chiqdilar. A.S.Makarenkoning fikricha, shaxs qismlarga bo'lib rivojlanmaydi, balki u duchor bo'lgan ta'sirlarning umumiyligini miqdoridan sintetik tarzda yaratilgan. Biroq, shaxs rivojlanishining yaxlitligi dastlabki navbatda ta'lim jarayonining hayot bilan, ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini nazarda tutadi.² Bu olimlarning amaliy tajribasidan shuni bilish mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatning shakllanishda integrativ yondashuv o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati uchun to'liq sharoitlar yaratishga imkon beradi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantirishni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi.

Integrativ yonashuvning talablarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati va rolini aniqlash uchun birinchi navbatda integrallashgan darslarning mohiyatini va ulardan ta'limda foydalanish tajribasini aniqlab olish lozim bo'ladi. Jumladan, pedagogika bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tajribalarga ham tayaniladi. Talabalarni tarbiyalashda integrativ yondashuvning ahamiyatini o'qituvchi to'laligicha tushunib, muammoning yechimiga, o'quv materialini o'rgatishga ijodkorona yondashmoqligi joizdir. Ularga mashg'ulot mazmuni, o'ziga xosligi, elastikligi, innovatsion mohiyatga egalik darajasi, shaxsga tomon yo'naltirilganligi, ijodiy potensiali, shaxsning kreativ rivojlanmog'i uchun istiqbolni belgilash singarilarni singdirishi zarur. Yana aytish kerakki, talabalarda kreativ qobiliyatni shakklanishida yuqori emotsiunal-ijobiy kayfiyat, ehtiyoj bo'lishi, buning uchun ta'lim jarayonida zaruriy didaktik shart-sharoitlar ta'minlanishi ham shart. Buning uchun esa mashg'ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, xotirada qolishi oson va qoladigan, talabalarning idrok qilish faoliyati esa rang-barang, ijodiy va reproduktiv bo'lmog'i darkor. Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida hukm surayotgan inqirozdan qutilishning yagona va bosh mezonidir.³

Davlat ta'lim standarti va milliy kadrlar tayyorlash to'g'risidagi qonunga ko'ra, har bir mutaxassis o'z sohasini mukammal bilish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalarini yetarlicha o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Barcha oliy o'quv yurtlarida "Informatika va axborot texnologiyalari" darslariga ko'proq e'tibor qaratilib, mavzular yangi ma'lumotlar bilan boyitib kelinmoqda. O'quvchilar informatika fanini

² Uskanovich OR (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali , 494-498

³ Р.У.Отамуратов., Ўқувчиларда қасбий мотивациялар шакланишининг психологияк омиллари. Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги. 2021.,

mukammal egallashlari uchun barcha fanlarni imkonli boricha axborot texnologiyalarini qo'llab, multimediyalar yordamida o'tish davr taqozosiga aylandi. Haqiqatdan ham, murakkab texnologik jarayonlarni og'zaki bayon etgandan ko'ra, multimediyalar yordamida bir necha marta takrorlanib, shu mavzu uchun mo'ljallangan pedagogik usullar bilan mavzu yoritilsa, dars qiziqarli, tushunarli va esda qolarli bo'ladi. Shunga ko'ra fan mavzulariga multimediyalar tayyorlab kelinmoqda. Axborot texnologiyalari yordamida dars mavzulariga multimediyalar yaratib, dars samaradorligini oshirish mumkinligi bugungi kunda har bir o'qituvchi juda yaxshi biladi. Yangi pedagogik texnologiyaning markazida ta'lim jarayonning rahbari hamda shu jarayonning ham sub'ekti ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi. Bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqati, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u faoliyatini to'g'ri tashkil etish, o'quv muassasida ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishdan iborat. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyasi deganda, dars o'tishning hozirgi talabga mos tushuvchi faol shakllari nazarda tutiladi. Yangi pedagogik texnologiyalarning ijobiy tomonlaridan biri o'qituvchining uslubiy takomillashishini, dars maqsadi, mazmuni va samarasini nazorat qilishda didaktik xulosalar chiqara olishini ta'minlashdir. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'qish jarayoniga tatbiq etish o'qituvchilarining uslubiy tayyorgarligini mukammal bo'lishiga olib keladi.⁴ Yangi pedagogik texnologiyalarga amal qilish qilish o'qituvchidan o'zining ixtisosligi bo'yicha keng miqyosda bilimlarga ega bo'lishini, shu bilimlarini o'qish jarayonida tatbiq qilishni talab etadi. Bu sohada o'qituvchi ta'lim jarayoning tashkilotchi rahbari bo'lib, yangi malaka, ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur va bugungi kunning talabi ham shunda namoyon bo'ladi.

Texnologik jarayon zarur vositalardan foydalanilgan holda operatsiyalarning muayyan ketmagnetligi bajarilishini ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirishga erishish va uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayoninni loyihalashtirishda namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quv dargohiga o'zgacha ruh, yangicha bir kayfiyat olib kelib, har bir talaba qalbida o'qishga bo'lgan ixlosni yanada orttirish lozim. O'quvchini darsga qiziqtirish uchun o'qituvchi

⁴ Axborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvorigagi psixologik omillar 16.S Abdulla, KU Abduvakilovna - International Journal of Contemporary Scientific and ..., 2022

uning shaxsi, iqtidori bilan qiziqishi va hurmat qilishi kerak, davomatga ham etibor berishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otamuratov, R.U. va Ochilova, M. (2022). Emotsional intelekt tushunchasining psixologik o‘ziga xosligi. Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIS) , (Maxsus soni 1), 54-58.
2. Uskanovich OR (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali , 494-498.
3. Р.У.Отамуратов., Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари. Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги. 2021.,
4. О‘quvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy yO‘nalishlari.M Rahmatullayeva - Журнал Педагогики и психологии в современном ..., 2021 Похожие статьи Все версии статьи (30)
5. Xalq pedagogikasida ta'lif va tarbiya masalari.M Rahmatullayeva - Журнал Педагогики и психологии в современном ..., 2021Похожие статьи Все версии статьи (15)
6. Ёшлилар таълим сифатини оширишда мотивациянинг ўрни ёхуд улкан мақсадлар сари дастлабки қадам ПМ Раҳматуллаева, МА Маҳкамова - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
7. Axborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvoridagi psixologik omillar 16.S Abdulla, KU Abduvakilovna - International Journal of Contemporary Scientific and ..., 2022
8. Gulomovna R. G. Talabalarda pedagogik muhitni shakllantirish //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 506-509.
9. Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 8. – C. 169-172.
- 10.Rashidova G. “Compentlik” and “compactness” of tincalaring of talhs and jewelry //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – T. 2021. – №. 4. – C. 99-112.